BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI DAVLAT RAMZLARI VOSITASIDA ONA VATANGA MUHABBAT HISSINI SHAKLLANTIRISH

Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada davlat ramzlari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ona Vatanga muhabbat ruhda tarbiyalashning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf darsliklari va sinfdan tashqari tadbirlarda davlat ramzlariga oid mavzular orqali o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga to‘xtalib o‘tilgan.

Abstract: this article describes the meaning of educating elementary school students in the spirit of love for the Motherland through state symbols. In addition, primary school textbooks and extracurricular activities focused on raising students in the spirit of patriotism through topics related to state symbols.

Аннотация: в данной статье рассматривается содержание обучения учащихся начальной школы духу любви к Родине посредством государственной символики. Также обсуждается использование тем, связанных с государственной символикой, в учебниках для начальной школы и внеклассных мероприятиях для воспитания у учащихся духа патриотизма.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, vatanparvarlik, gerb, bayroq, madhiya, Konstutsiya, davlat ramzlari, Vatan, ma’naviyat, tarbiya, konsepsiya, milliy g‘oya.

Key words: primary education, patriotism, coat of arms, flag, anthem, Constitution, state symbols, Motherland, spirituality, education, concept, national idea.

Ключевые слова: начальное образование, патриотизм, герб, флаг, гимн, Конституция, государственные символы, Родина, духовность, образование, концепция, национальная идея.

Mamlaktimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng yoshlarni vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ma’naviyatini yuksaltirish, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga katta e’tibor qaratila boshlandi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev o‘z nutqlarida: “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda”, - deb bu borada qilinishi lozim bo‘lgan ishlar haqida aniq vazifa va ko‘rsatmalarni berib o‘tganlar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorida quyidagi vazifalar belgilangan:

Ta’lim muassalarida o‘quvchilarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan tantanali marosimlarning yangi, ta’sirchan shakllarini ishlab chiqish va joriy qilish.

O‘g‘il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo‘ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g‘ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo‘stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinflari uchun O‘zbekiston barkamollik uchun ta’lim dasturi asosida chop etilgan “Ona tili” darsligining “Konstitutisiya – baxtimiz poydevori” mavzusida 3-sinf o‘quvchilarini huquq va burchlari haqida maqola yozishga, ijodiy fikrlashga o‘rgatish bilan birgalikda oila davrasida suhbatlashish va javob yozishlari uchun quyidagi savollar berilgan:

1. O‘zbekistonning qanday Davlat ramzlari bor? Ular haqida nimalarni bilasiz?
2. Davlatimiz gerbidagi Humo qushi nimaning ramzi?
3. Bug‘doy, paxta va quyosh-chi?
4. Davlat ramzlariga qanday munosabatda bo‘lish kerak?

Bunday mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltiruvchi savollar orqali o‘quvchilarni Vatan oldidagi fuqarolik burchlarini chuqur his qilishga undaydi.

O‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida trabiyalashda umumta’lim maktablarida darsdan bo‘sh vaqtlarda o‘tkaziladigan tadbirlar va tanlovlarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Xususan, “2-iyul - O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi

qabul qilingan kun", "18-noyabr – O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qabul qilingan kun", "10-dekabr – O'zbekiston Respuablikasining Davlat madhiyasi qabul qilingan kun" va boshqa muhim sanalar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirlarda o'quvchilarga davlat ramzlari haqida ma'lumot berilishi, ular haqida she'r va qo'shiqlar kuylashi orqali o'quvchilar qalbida vatanparvarlik ruhini singdirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori. 2019-yil 31-dekabr. https://lex.uz.
2. Toirova M.E. Ona tili. 3-sinf. Darslik. –Toshkent, 2023. –89 b.
3. Toirova M.E. Ona tili. 4-sinf. Darslik. –Toshkent, 2023. –90 b.